ADABIY ERTAK JANRI XUSUSIYATLARI VA TASNIFI

Ibrohimova Gulchiroy Asqarali qizi
Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs doktoranti
ORCID ID 0009-0007-2696-2661

Annotatsiya
Maqolada adabiy ertak janrining nazariy asoslari, folklor ertaklari bilan o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda adabiy ertakning muallif individualligi, badiiy konsepsiya va folklor an’analariga munosabati asosiy mezon sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zbek adabiy ertaklarini folklor asosidagi va original muallif ertaklariga ajratish ilmiy jihatdan asoslanadi.
Kalit so‘zlar: *adabiy ertak, folklor, muallif ertagi, janr, poetika.*

KIRISH

Ertaklar insoniyat paydo bo‘libdiki, insoniyatning xoh yaxshi, xoh yomon kunlarida doimiy hamrohi bo‘lib, dastlab nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun ham aytilgan. Alohida ertak kechalari o‘tkazilib, ma’lum ma’noda undagi ba’zi g‘ayritabiiy narsalarga ibtidoiy davrlarda ishonganlar. Asta-sekin yozma adabiyot shakllanib, taraqqiy eta borgani sari adabiy ertaklar ham paydo bo‘la boshladi. Bu o‘rinda adabiy ertak o‘zi nima? Uning xalq ertaklaridan qanday farqi bor ekanligini aniqlab olsak. Bilamizki, adabiy ertak ma’lum bir shaxs tomonidan yozilgan, ya’ni muallifi aniq bo‘lgan ertaklardir. Bunday ertaklar nafaqat muallifining aniqligiga ko‘ra, ayni paytda ijodkorning individual dunyoqarashini ifodalashi, ko‘p jihatdan badiiy jihatdan salmoqdorligi va mavzulari, g‘oyasi jihatdan farq qiladi. Albatta, xalq ertaklaridagi soddalik va xalqchillik adabiy ertaklarning syujetlari aro ko‘chib yurishiga xizmat qiladi. Ammo o‘zbek adabiyotida shu paytga qadar adabiy ertak chegarasi to‘liq qo‘yilmagan bo‘lib, adabiy ertak deganda muallifi aniq asar nazarda tutiladiki, bunda ko‘p hollarda adabiy ertak va fantastik asarlar o‘rtasidagi farq yo‘qolib ketganini ko‘ramiz. Xususan, Skandinaviya adabiy ertaklarini tahlil qilgan olim L. Yu. Braude adabiy ertakka quyidagicha ta’rif beradi: “Adabiy ertak muallifga tegishli bo‘lgan, nasriy yoki she’riy shakldagi badiiy asar bo‘lib, u folklor tamoyillariga asoslanishi ham, mutlaqo original bo‘lishi ham mumkin.”[28] E.A.Suxorukov esa Braudeni tanqid qiladi va bunga qo‘shilmaydi: “ Jiddiy muammo ushbu ta'rifning birinchi qismidayoq mavjud. Masalan, aka-uka Grimm ertaklarini mualliflik ertaklari deb hisoblash mumkinmi? Ular folklor asosida yaratilgan, biroq to‘plovchilarning shaxsiyati ham sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Bunday hollarda folklor ertagi yozuvi bilan mualliflik, ya'ni adabiy ertak o‘rtasidagi aniq chegarani belgilash qiyin. Biroq bunday chegara mavjud. U asarda

[28] Брауде Л. Ю. К истории понятия «литературная сказка» // Известия АН СССР. Серия литературы и языка. — 1977. — Т. 36. — № 3. — С. 234.

muallif niyati va individual konsepsiyaning mavjud yoki mavjud emasligida namoyon bo‘ladi.”[29] – deydi va shunga ko‘ra u adabiy ertaklarni uch guruhga bo‘ladi:

1. Folklor ertagining yozib olingan variant.
2. Folklor ertagining adabiy qayta ishlangan shakli.
3. Muallifning original ertagi.

Ayni vaqtda rus adabiy ertaklarini tahlil qilgan olim Lipovetskiy Braudening adabiy ertakning yagona belgisi fantastik syujet degan fikriga qarshi chiqadi va ushbu talqinga ergashilsa Gyotening “Faust”ini ham adabiy ertak deb olish kerak degan fikrni bildirib o‘tadi.[30]

L.V.Ovchinnikova esa adabiy ertaklarni ikki guruhga ajratadi:

1. Folklor-adabiy ertaklar;
2. Individual-mualliflik ertaklari.[31] Darhaqiqat, adabiy ertaklarda muallifning yohud xalq og‘zaki ijodining pozitsiyasining kuchliligiga ko‘ra o‘zbek adabiy ertaklarini ham quyidagi guruhlarga bo‘lishni lozim topdik:

1.Folklor asosidagi adabiy ertak;
2. Original muallif ertagi.

Suxorukov taklif qilgan folklor ertagining yozib olingan variant turini esa adabiy ertak janriga kiritish noto‘g‘ri bo‘lib, u yozib olingan bo‘lsa-da, to‘plangan xalq ijodiyoti bo‘lib qolaveradi. Adabiy ertaklarning yana bir muhim jihati ular nafaqat xalq ijodiyoti, balki jahon adabiyoti namunalaridan, boshqa yozuvchilarning asarlari ta’sirida ham yaratiladi. Original muallif ertagi folklor ertagidan nafaqat syujeti, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi bilan ham ajralib turadi. Original muallif ertagi asosan individualligi bilan ajralib tursa, folklorga umumiylik xosdir. Masalan, xalq og‘zaki ijodiga tegishli “Bek bilan dehqon” ertagini olaylik: “Bir dehqon qo‘sh haydab turgan ekan, podshoning qo‘shbegisi ot minib katta yo‘ldan o‘tib qolibdi. Dehqonga ko‘zi tushib:

- Hormang!- debdi.”[32] Endi esa Anvar Obidjonning “Gulixonning gulzorchasi” ertagi(ba’zi manbalarda hikoya deb beriladi. Bunga keyinroq alohida to‘xtalamiz)dan misol keltirsak: “ Gulixon oynavand ayvonda nonushta qilib bo‘lib, tashqariga chiqdi-yu, to‘g‘ri gulzorcha tomonga chopqilladi. Bu o‘z-o‘zining gulzorchasi. Buvisi erta bahorda ariqcha yoqasidagi yerning supradekkina joyini ketmonda yumshatib berdi.”[33] Ushbu ikki ertakni tahlilga tortadigan bo‘lsak, birinchi xalq og‘zaki ijodi namunasida “Bir dehqon”, “podshoning qo‘shbegisi” deya mavhumlik, umumiylikni o‘zida

[29] Сухоруков Е. А. Соотношение понятий «фольклорная сказка», «литературная сказка» и «авторская сказка» на примере современных экологических авторских сказок // Вестник Московского государственного лингвистического университета. 2014. № 19 (705). С. 144–151.

[30] Липовецкий М. Н. Поэтика литературной сказки. — Свердловск: Изд-во Уральского университета, 1992.

[31] Сухоруков Е. А. Соотношение понятий «фольклорная сказка», «литературная сказка» и «авторская сказка» на примере современных экологических авторских сказок // Вестник Московского государственного лингвистического университета. 2014. № 19 (705). С. 144–151.

[32] Xalq og’zaki ijodi. Qizil olma. Toshkent-2020. B-11.
[33] A. Obidjon. O’q o’tmas bolakay yoxud Oltin yurak. Sharq nashriyoti. Toshkent-2011. B-298.

mujassam etgan bo‘lib, qahramonlarning kimligi haqida ma’lumot berilmaydiki, bu folklorning asosiy belgilaridan biridir. Folklorga xos yana bir xususiyatlardan biri “qadim zamonga” ishora qilish bo‘lib, ertakdagi “podsho, qo‘shbegi, bo‘lgan ekan” kabilar o‘tmishga tegishli voqelikni ko‘rsatadi. Ikkinchi ertak esa adabiy ertak bo‘lib, adabiy ertakning ham sof mualliflik turiga mansub. Chunki ushbu ertakda folklor motivlari uchramaydi. Qahramon aniq va voqelik hozirgi zamonda bo‘lmoqda. Ko‘rinib turibdiki, yetarlicha o‘rganilmagan, shunchaki ertak deb nomlanib ketiladigan adabiy ertak folklor ertaklaridan tubdan farq qiladi. Ammo ba’zi adabiy ertaklar ham borki, ularni aniq muallif yozsa-da, ularda folklorning ta’siri yaqqol sezilib turadi. Bunday ertaklarni biz folklor asosidagi adabiy ertak deya olamiz. Xalq og‘zaki ijodi sodda va ta’sirchan bo‘lgani uchun ham ko‘plab ijodkorlar o‘z asarlarida ulardan foydalanadilar. Masalan, bolalar ijodkori Shukur Sa’dullaning xalq og‘zaki ijodining mashxur “Yoriltosh” ertagini stilizatsiya qilgani holda yaratgan “Yoriltosh” ertak-pyesasini olaylik. Ushbu asar sof muallif ertagi emas, balki folklore asosidagi ertak-pyesadir. Unda ijodkor xalq og‘zaki ertagi syujeti, obrazlaridan foydalangan bo‘lib, ayni vaqtda o‘z pozitsiyasini ham qo‘shgan. Adabiy ertak-pyesa avvalo, shakliy jihatdan farqli bo‘lib, u she’riy shaklda yozilgan. “Yoriltosh”ning har ikkisi ham an’anaviy boshlanma bilan boshlanadi: “Bor ekanda yo‘q ekan…” Ammo xalq ertagidan farqli o‘laroq, Sh. Sadullaning ertak-pyesasi badiiy jihatdan yuksakligi, ertak-drama dramaga xos bo‘lgan elementlar, dialoglarning ko‘pligi, voqealarning shiddati bilan ajralib turadi. Ushbu ikki asarni tahlilga tortgan olima B. Jamilova quyidagicha yozadi: “Asar birgina “Yoriltosh” ertagi syujetini stilizatsiya qilish asosidagina emas, balki shu ertakda tasvirlangan o‘gaylik motivlariga hamohang bo‘lgan boshqa bir qancha xalq ertaklaridan ijodiy ilhomlanish va ta’sirlanish negizida yozilgan. Dramaturg uni uch marta qayta ishlab, o‘zbek bolalar dramaturgiyasining yorqin namunasiga aylantira oldi.”[34]

Adabiy ertak xalq og‘zaki ijodi an’analari asosida shakllangan bo‘lsa-da, muallif shaxsi, individual badiiy tafakkuri va estetik qarashlari bilan folklor ertaklaridan farqlanadi. Folklor ertaklarida umumiylik, anonimlik va an’anaviylik ustun bo‘lsa, adabiy ertaklarda muallif konsepsiyasi, individual uslub hamda zamonaviy badiiy talqin yetakchi o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar tomonidan adabiy ertakning turlicha tasniflari taklif etilgan bo‘lsa-da, ularni umumlashtirib, adabiy ertaklarni folklor asosidagi adabiy ertaklar va original muallif ertaklari kabi ikki asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Folklor asosidagi adabiy ertaklarda xalq ijodi motivlari va syujetlari saqlanib qolsa, original muallif ertaklarida muallifning mustaqil badiiy dunyosi, obrazlar tizimi va g‘oyaviy qarashlari namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, adabiy ertak o‘zining janriy tabiati, badiiy imkoniyatlari va estetik vazifalari bilan zamonaviy bolalar adabiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аминов, С. Становление и развитие жанра литературной сказки в узбекской советской литературе: дис. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1984. 36. 2. Брауде Л. Ю. К истории понятия «литературная сказка» // Известия АН СССР. Серия литературы и языка. — 1977. — Т. 36. — № 3. — С. 234.

[34] **B. Jamilova. O’zbek bolalar adabiyoti. “Noshir” nashriyoti, 2019. B-51, 52.**

3. Сухоруков Е. А. Соотношение понятий «фольклорная сказка», «литературная сказка» и «авторская сказка» на примере современных экологических авторских сказок // Вестник Московского государственного лингвистического университета. 2014. № 19 (705). С. 144–151.

4. Липовецкий М. Н. Поэтика литературной сказки. — Свердловск: Изд-во Уральского университета, 1992.

5. Сухоруков Е. А. Соотношение понятий «фольклорная сказка», «литературная сказка» и «авторская сказка» на примере современных экологических авторских сказок // Вестник Московского государственного лингвистического университета. 2014. № 19 (705). С. 144–151.

6. Xalq og‘zaki ijodi. Qizil olma. Toshkent-2020. B-11.

7. A. Obidjon. O‘q o‘tmas bolakay yoxud Oltin yurak. Sharq nashriyoti. Toshkent-2011. B-298.

8. B. Jamilova. O‘zbek bolalar adabiyoti. “Noshir” nashriyoti, 2019. B-51, 52.